

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARIDA PEDAGOGIK MULOQOT STRATEGIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA REFLEKSIV TOPSHIRIQLARNING IMKONIYATLARI

Murodullayeva Dilsora Ilhom qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida pedagogik muloqot strategiyalarini rivojlantirishda refleksiv topshiriqlarning o'rni, ularning pedagogik va metodik asoslari tahlil qilingan. Pedagogik muloqot strategiyasi va refleksiv topshiriq tushunchalarining mazmuni, ularning psixologik-pedagogik negizlari, tuzilmaviy tarkibi va tasnifi yoritilgan. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarlik xususiyatlaridan kelib chiqib, refleksiv topshiriq asosida mashg'ulotni loyihalash bosqichlari, topshiriqni tanlash mezonlari hamda ta'lim beruvchining vazifalari ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijasida refleksiv topshiriqlarni kasbiy tayyorgarlik jarayoniga tizimli tatbiq etishning metodik modeli taklif etilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik muloqot, muloqot strategiyasi, refleksiv topshiriq, refleksiya, kasbiy tayyorgarlik, bo'lajak o'qituvchi, boshlang'ich ta'lim, metodik model, pedagogik amaliyot.

Аннотация: В статье анализируется роль рефлексивных заданий в развитии стратегий педагогического общения у будущих учителей начального образования, а также их педагогические и методические основы. Раскрыты содержание понятий «стратегия педагогического общения» и «рефлексивное задание», их психолого-педагогические основания, структура



и классификация. Исходя из особенностей профессиональной подготовки будущего учителя, показаны этапы проектирования занятия на основе рефлексивных заданий, критерии их отбора и задачи преподавателя. По итогам исследования предложена методическая модель системного внедрения рефлексивных заданий в процесс профессиональной подготовки.

Ключевые слова: педагогическое общение, коммуникативная стратегия, рефлексивное задание, рефлексия, профессиональная подготовка, будущий учитель, начальное образование, методическая модель, педагогическая практика.

Abstract: *The article analyzes the role of reflective tasks in developing pedagogical communication strategies among future primary education teachers, as well as their pedagogical and methodological foundations. The content of the concepts of “pedagogical communication strategy” and “reflective task”, their psychological and pedagogical grounds, structure and classification are examined. Based on the characteristics of a future teacher’s professional training, the stages of designing a session built on reflective tasks, the criteria for selecting such tasks and the tutor’s tasks are described. As a result of the study, a methodological model for the systematic integration of reflective tasks into the professional training process is proposed.*

Keywords: *pedagogical communication, communication strategy, reflective task, reflection, professional training, future teacher, primary education, methodological model, teaching practice.*

KIRISH



Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida pedagogik ta’lim tizimini isloh qilish, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini xalqaro talablar darajasiga ko‘tarish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini, jumladan, o‘quvchilar va hamkasblar bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish vazifasi alohida ta’kidlangan [1]. Pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilishga oid me’yoriy hujjatlarda esa amaliyotga yo‘naltirilgan, refleksiya asoslangan o‘qitish usullarini joriy etish maqsad qilib qo‘yilgan [2].

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi bo‘lajak o‘qituvchilarini tayyorlash bosqichi alohida ahamiyatga ega. Aynan shu bosqichda talabaning kasbiy muloqot madaniyati, pedagogik vaziyatni tahlil qilish va o‘z faoliyatini baholash ko‘nikmalari shakllanadi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, o‘quv rejasida nazariy bilim yetarli darajada berilsa-da, talaba bu bilimni real sinf vaziyatida muloqot strategiyasiga aylantirishda qiynaladi: u o‘quvchi bilan dialog qurishda, murakkab vaziyatda tinch ohangni saqlashda, o‘z xatti-harakatini tahlil qilishda tayyor emasligini his qiladi.

Shu nuqtai nazardan, reflektiv topshiriqlar nazariy bilim va amaliy muloqot ko‘nikmasi o‘rtasida tabiiy ko‘prik vazifasini bajaradi. Reflektiv topshiriq talabaga o‘z pedagogik tajribasini (real yoki modellashtirilgan) tahlil qilish, undagi muloqot strategiyasini aniqlash, muqobil yechimlarni izlash va xulosa chiqarish imkonini beradi. Biroq amaliyotda reflektiv topshiriqlar ko‘pincha mashg‘ulot yakunidagi rasmiy savol-javob sifatida qoraladi, ularning strukturasi va baholash mezonlari



tizimli asosga ega bo'lmaydi. Natijada topshiriq talabada qiziqish uyg'otsa ham, kutilgan kasbiy natijani bermaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida pedagogik muloqot strategiyalarini rivojlantirishda refleksiv topshiriqlardan foydalanishning pedagogik va metodik asoslarini nazariy jihatdan tahlil qilish hamda ularni kasbiy tayyorgarlik jarayoniga tizimli tatbiq etishning metodik modelini ishlab chiqishdan iborat. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: pedagogik muloqot strategiyasi va refleksiv topshiriq tushunchalarining mazmunini va psixologik-pedagogik negizlarini aniqlash; refleksiv topshiriqning tuzilmasi va tasnifini asoslash; refleksiv topshiriq asosida mashg'ulotni loyihalash bosqichlari va topshiriqni tanlash mezonlarini ishlab chiqish; ta'lim beruvchining refleksiyani boshqarishdagi vazifalarini aniqlash.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Refleksiya tushunchasining pedagogikaga kirib kelishida D. Dyui (J. Dewey)ning ta'limotlari muhim o'rin tutadi. U refleksiv tafakkurni shaxsning o'z tajribasini faol, izchil va tanqidiy ko'rib chiqish jarayoni sifatida ta'riflab, uni oddiy amaliy faoliyatdan farqlagan [10]. D. Shon (D. Schön) esa kasbiy faoliyatda ikki xil refleksiya turini — faoliyat jarayonidagi refleksiya (reflection-in-action) va faoliyatdan keyingi refleksiya (reflection-on-action)ni ajratib ko'rsatib, "fikrlovchi amaliyotchi" (reflective practitioner) konsepsiyasini asoslagan [11]. Bu g'oya bo'lajak o'qituvchini tayyorlashda amaliyot va nazariyani bog'lovchi metodologik tayanch bo'lib xizmat qiladi.

F. Korthagen va hammualliflari o'qituvchilar tayyorlashda "realistik pedagogika" yondashuvini ishlab chiqib, talaba tajribasini tahlil qilish uchun bosqichma-bosqich refleksiya sikli (ALACT modeli: harakat, harakatga qaytish, muhim jihatlarni anglash, muqobil usullar yaratish, sinab ko'rish)ni taklif etgan [12]. D. Boud, R. Keogh va D. Uoker (D. Walker) refleksiyani tajribani o'quv natijasiga aylantiruvchi jarayon sifatida tavsiflab, uning hissiy va bilishga oid komponentlarini ko'rsatib bergan [13]. K. Zaychner va D. Liston (K. Zeichner, D. Liston) refleksiv o'qitishni bo'lajak o'qituvchining kasbiy avtonomiyasini shakllantiruvchi asosiy vosita deb hisoblagan [14].

O'yin va muloqot faoliyatining bola hamda kattalar rivojlanishidagi o'rnini o'rganishda L.S. Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" haqidagi g'oyasi nafaqat o'quvchi, balki bo'lajak mutaxassisning kasbiy rivojlanishini tushunishda ham metodologik ahamiyatga ega [15]. Muloqot pedagogikasi tamoyillari M.M. Baxtin va boshqa mualliflar tomonidan dialogik muloqot nazariyasi orqali chuqur yoritilgan bo'lib, unda muloqot ikki tomonlama, o'zaro tushunishga yo'naltirilgan jarayon sifatida qoraladi.

O'zbek pedagogikasida pedagogik mahorat va muloqot masalasi J. Hasanboyev, O'.Q. Tolipov, M. Usmonboyeva, J.G'. Yo'ldoshev, R. Ishmuhamedov kabi olimlarning ishlarida pedagogik texnologiyalar va innovatsion o'qitish usullari tarkibida o'rganilgan [3; 4; 5]. Ularda pedagogik muloqot o'qituvchining kasbiy mahoratini tashkil etuvchi asosiy komponentlardan biri sifatida tavsiflanib, uni rivojlantirishning amaliy usullari ko'rsatib berilgan. Shu bilan birga, oliy pedagogik ta'lim amaliyotida refleksiv topshiriqlarni pedagogik

muloqot strategiyalarini rivojlantirish vositasi sifatida tizimli qo'llashning yaxlit metodikasi hozircha yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, refleksiyaning umumpedagogik mohiyati va uning kasbiy tayyorgarlikdagi ahamiyati yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun reflektiv topshiriqni tanlash, mashg'ulotga joylashtirish va uning pedagogik muloqot strategiyalariga ta'sirini baholashni bir butun tizimga birlashtiruvchi metodik model masalasi to'liq hal etilmagan.

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish va modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar hamda oliy pedagogik ta'lim bo'yicha o'quv dasturlari tahlil qilindi. Tizimli yondashuv asosida reflektiv topshiriqning tarkibiy qismlari, ularning o'zaro aloqasi va kasbiy tayyorgarlik jarayonidagi o'rni aniqlandi.

NATIJALAR

1. Pedagogik muloqot strategiyasi va reflektiv topshiriq tushunchalari

Tahlillar asosida pedagogik muloqot strategiyasi va reflektiv topshiriq tushunchalarini quyidagicha ta'riflash mumkin. Pedagogik muloqot strategiyasi — bu o'qituvchining ta'lim vaziyatiga mos ravishda muloqot maqsadini, uslubini va vositalarini ongli tanlash hamda qo'llash tizimidir; u tinglash, savol berish, qo'llab-quvvatlash, ziddiyatni bartaraf etish kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Reflektiv topshiriq esa — bu talabaga o'zining (yoki modellashtirilgan) pedagogik muloqot tajribasini tahlil qilish, undagi kuchli va zaif jihatlarni aniqlash, muqobil muloqot

strategiyasini asoslash hamda xulosa chiqarishni talab qiluvchi, aniq tuzilmaga ega o'quv topshirig'idir.

Oddiy amaliy topshiriqdan farqli ravishda reflektiv topshiriqda ikki qatlam mavjud bo'ladi: talaba uchun ochiq bo'lgan bajarish maqsadi (vaziyatni tasvirlash, dialogni tahlil qilish, xulosa yozish) va o'qituvchi (professor-o'qituvchi) ko'zlagan, chuqurroq kasbiy maqsad — muloqot strategiyasini ongli tanlash va o'zlashtirilgan bilimni amaliy vaziyatga ko'chira olish qobiliyatini shakllantirish. Reflektiv topshiriqning pedagogik qimmatini aynan shu ikki qatlamning uyg'unligidadir: talaba konkret vaziyat ustida ishlagan holda, o'zi sezmagani tarzda kasbiy muloqot strategiyasini shakllantiradi.

Reflektiv topshiriqning kasbiy tayyorgarlik jarayonidagi asosiy funksiyalarini quyidagicha ajratish mumkin [6; 7]: ta'limiy funksiya (muloqot strategiyalari haqidagi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish); rivojlantiruvchi funksiya (tanqidiy tafakkur, empatiya, nutq madaniyatini o'stirish); tarbiyaviy funksiya (kasbiy mas'uliyat, o'zini o'zi baholay olish, hamkasblar fikriga hurmat); diagnostik funksiya (ta'lim beruvchiga talabaning muloqot strategiyalarini o'zlashtirish darajasini kuzatish imkonini berish); korreksion funksiya (aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini birgalikda izlash).

2. Reflektiv topshiriqning psixologik-pedagogik asoslari

Reflektiv topshiriqlardan foydalanishning psixologik asosi bo'lajak o'qituvchining kasbiy shakllanish bosqichidagi xususiyatlari bilan belgilanadi. Ushbu bosqichda talabada nazariy bilim allaqachon mavjud bo'ladi, biroq uni amaliy vaziyatga ko'chirish tajribasi yetarli emas, shuning uchun o'z xatti-



harakatini tashqaridan “ko‘ra olish”, ya’ni refleksiv pozitsiyani egallash muhim ahamiyat kasb etadi. D. Shonning fikricha, aynan shu qobiliyat kasbiy mahoratning yadrosini tashkil etadi, chunki har qanday real pedagogik vaziyat noyob bo‘lib, tayyor retseptlar bilan hal qilib bo‘lmaydi [11].

F. Korthagenning ALACT modeli refleksiv topshiriq mazmunini belgilashda muhim metodologik tayanch bo‘lib xizmat qiladi [12]. Topshiriq talaba mustaqil bajara oladigan darajadan biroz murakkabroq bo‘lishi, ammo o‘qituvchi yoki hamkurslar yordamida bajarilishi mumkin bo‘lishi lozim. Juda oddiy topshiriq yuzaki javobga, juda murakkab topshiriq esa chalkashlik va rad etishga olib keladi. D. Boud, R. Keogh va D. Uokerning xulosalari esa refleksiyada hissiy komponentni e’tiborsiz qoldirib bo‘lmasligini ko‘rsatadi: talaba, avvalo, o‘z his-tuyg‘ularini anglashi, so‘ngra vaziyatni tahlil qilishi va yangi bilim chiqarishi kerak [13].

Pedagogik jihatdan refleksiv topshiriqlar shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, amaliyotga asoslangan yondashuv va hamkorlik pedagogikasi tamoyillariga tayanadi. Amaliyotga asoslangan yondashuvga ko‘ra, kasbiy ko‘nikma talabaga tayyor holda berilmaydi, balki uning o‘z tajribasini tahlil qilishi natijasida shakllanadi. Refleksiv topshiriqda talaba passiv tinglovchi emas, balki o‘z kasbiy tajribasining faol tadqiqotchisi bo‘ladi. Hamkorlik pedagogikasi esa guruhviy refleksiya jarayonida talabalarning bir-birining muloqot strategiyasini konstruktiv tahlil qilishi orqali amalga oshadi.

3. Refleksiv topshiriqning tuzilmasi



Har qanday refleksiv topshiriq muayyan tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, ulardan birortasining yo‘qligi topshiriqning kasbiy samarasini pasaytiradi. Tahlillar asosida refleksiv topshiriq tuzilmasining quyidagi qismlari aniqlandi. Birinchisi, refleksiya predmeti, ya’ni tahlil qilinadigan pedagogik vaziyat yoki muloqot epizodi (video yozuv, matn, rolli o‘yin, real amaliyot kuzatuv). Ikkinchisi, yo‘naltiruvchi savollar, ya’ni talabaning e’tiborini muloqot strategiyasining muhim jihatlariga qaratuvchi savollar tizimi (“Nima uchun shu uslubni tanladingiz?”, “Muqobil yechim qanday bo‘lishi mumkin edi?”). Uchinchisi, refleksiv harakatlar, ya’ni talaba bajaradigan amallar: tasvirlash, tahlil qilish, baholash, muqobil taklif qilish. To‘rtinchisi, muhokama shakli, ya’ni individual yozma ish, juftlikdagi yoki guruhdagi og‘zaki muhokama. Beshinchisi, xulosa va harakat rejasi, ya’ni topshiriq natijasida talaba kelgusida qanday muloqot strategiyasini qo‘llashni rejalashtirishi.

Refleksiya predmeti bilan yo‘naltiruvchi savollar o‘rtasidagi mutanosiblik topshiriqning muvaffaqiyatini belgilaydi. Agar savollar haddan ortiq umumiy bo‘lsa, talaba javobi sayoz tavsifga aylanib qoladi. Aksincha, savollar haddan ortiq batafsil bo‘lsa, talabaning mustaqil fikrlashi cheklanadi. Shuning uchun ta’lim beruvchi topshiriqni loyihalashda ikki jihatni — erkinlik va yo‘naltirilganlikni teng hisobga olishi lozim.

4. Refleksiv topshiriqlarning tasnifi

Pedagogik adabiyotlarda refleksiv topshiriqlar turli mezonlar asosida tasniflanadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash amaliyoti uchun eng qulay bo‘lgan tasnif 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda refleksiv topshiriqlarning tasnifi

Tasnif asosi	Topshiriq turlari	Namuna
Refleksiya predmetiga ko'ra	Video tahlil, matnli vaziyat tahlili, o'z tajribasi tahlili, hamkasb tajribasi tahlili	Video darsdagi o'qituvchi-o'quvchi dialogini tahlil qilish
Bajarish vaqtiga ko'ra	Faoliyat jarayonidagi (real vaqt) va faoliyatdan keyingi refleksiya	Amaliyot darsidan so'ng kundalik-refleksiya yozish
Ishtirokchilar soniga ko'ra	Individual, juftlikdagi, guruhli refleksiya	"Ko'zgu" mashqi — juftlikda bir-birining muloqotini tahlil qilish
Shakliga ko'ra	Yozma (kundalik, portfolio), og'zaki (muhokama, disput), vizual (sxema, xarita)	Muloqot strategiyasi xaritasini chizish
Murakkablik darajasiga ko'ra	Tavsiflovchi, tahliliy, tanqidiy-baholovchi refleksiya	Ziddiyatli vaziyatni tanqidiy tahlil qilish topshirig'i

Ushbu tasnif ta'lim beruvchiga mashg'ulot maqsadi, guruh tarkibi va mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib, topshiriq turini ongli ravishda tanlash imkonini beradi.

5. Refleksiv topshiriqni tanlash mezonlari

Refleksiv topshiriqni tanlashda ta'lim beruvchi quyidagi mezonlarga tayanishi lozim. Maqsadga muvofiqlik mezoni: topshiriq mashg'ulot mavzusi va shakllantirilishi lozim bo'lgan muloqot strategiyasiga bevosita xizmat qilishi kerak. Kasbiy tayyorgarlik darajasiga moslik mezoni: topshiriq mazmuni va murakkabligi talabning o'quv bosqichiga mos bo'lishi lozim; birinchi kursda soddaroq,

tavsiflovchi topshiriqlar, yuqori kurslarda esa tanqidiy-baholovchi topshiriqlar tavsiya etiladi. Xavfsiz muhit mezonlari: refleksiya talabaning shaxsiy qadriyatini kamsitmaydigan, xato qilishdan qo'rqmaydigan muhitda o'tkazilishi zarur. Vaqt jihatidan tejamkorlik mezonlari: topshiriq mashg'ulot vaqtining asosiy qismini egallab olmasligi, natijaga erishish uchun yetarli vaqt ajratilishi lozim. Baholanuvchanlik mezonlari: topshiriq natijasi aniq mezonlar asosida baholanishi mumkin bo'lgan mahsulot (yozma tahlil, taqdimot) shaklida ifodalanishi tavsiya etiladi.

6. Refleksiv topshiriq asosida mashg'ulotni loyihalash va o'tkazish bosqichlari

Refleksiv topshiriqning samaradorligi ko'p jihatdan uning puxta tayyorlanishi va izchil o'tkazilishiga bog'liq. Tadqiqot natijasida mashg'ulotning quyidagi bosqichlari ajratildi (2-jadval).

2-jadval. Refleksiv topshiriqni tashkil etish bosqichlari

Bosqich	Ta'lim beruvchi faoliyati	Talaba faoliyati
1. Tayyorgarlik	Refleksiya predmetini tanlaydi, yo'naltiruvchi savollarni tuzadi, baholash mezonlarini belgilaydi	Oldingi mashg'ulotlarda zarur nazariy bilimlarni egallaydi
2. Kirish va yo'naltirish	Topshiriq maqsadini, muhokama shaklini va xavfsiz muhit qoidalarini tushuntiradi	Savollarni tinglaydi, aniqlik kiritadi
3. Refleksiv topshiriqni bajarish	Jarayonni kuzatadi, zarur bo'lsa qo'shimcha savol beradi, qiynalgan talabaga yo'naltiruvchi yordam	Vaziyatni tasvirlaydi, tahlil qiladi, muqobil yechim taklif etadi

Bosqich	Ta'lim beruvchi faoliyati	Talaba faoliyati
	ko'rsatadi	
4. Guruhiy muhokama	Talabalar fikrini umumlashtiradi, turli muloqot strategiyalarini qiyoslaydi	Fikrini bildiradi, hamkurslar fikrini tinglaydi va baholaydi
5. Yakuniy refleksiya	Asosiy xulosalarni mustahkamlaydi, keyingi amaliyot uchun vazifa belgilaydi	Harakat rejasini tuzadi, o'z rivojlanish yo'nalishini belgilaydi

Guruhiy muhokama va yakuniy refleksiya bosqichlari ko'pincha e'tibordan chetda qoladi, ammo aynan shu bosqichlarda individual tajriba umumiy kasbiy bilimga aylanadi.

7. Refleksiv topshiriqlar asosida pedagogik muloqot strategiyalarini rivojlantirishning metodik modeli

Yuqoridagi tahlillar asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida pedagogik muloqot strategiyalarini rivojlantirishning metodik modeli ishlab chiqildi. Model to'rtta o'zaro bog'liq blokdan iborat.

Maqsad bloki davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi talablaridan kelib chiqib, har bir bosqich uchun shakllantiriladigan muloqot strategiyalari (tinglash, savol berish, qo'llab-quvvatlash, ziddiyatni hal etish)ni belgilaydi.

Mazmun bloki fanlar va amaliyot turlari kesimida tuzilgan refleksiv topshiriqlar to'plamini o'z ichiga oladi. To'plamdagi har bir topshiriq uchun refleksiya predmeti, yo'naltiruvchi savollar, muhokama shakli, baholash mezonlari



va tavsiya etiladigan bosqich ko'rsatiladi. Topshiriqlar oddiydan murakkabga tamoyili asosida kursdan-kursga izchil joylashtiriladi.

Texnologik blok refleksiv topshiriq asosida mashg'ulotni loyihalash va o'tkazish algoritmini, ya'ni yuqorida keltirilgan besh bosqichni qamrab oladi. Raqamli vositalar — video yozuvlar, onlayn kundalik platformalari, elektron portfolio — refleksiyaning ko'rgazmaliligini oshiradi, ammo ular jonli guruhviy muhokamani to'liq almashtirmasligi kerak.

Baholash bloki topshiriq samaradorligini aniqlash mezonlarini belgilaydi: talabaning refleksiv tahlil chuqurligi; taklif etilgan muqobil muloqot strategiyasining asoslanganligi; amaliyotdagi keyingi muloqotida kuzatilgan o'zgarishlar; guruhviy muhokamadagi faolligi. Ushbu mezonlar ta'lim beruvchiga topshiriqlar to'plamini doimiy takomillashtirib borish imkonini beradi.

8. Fanlar va amaliyot turlari kesimida refleksiv topshiriqlardan foydalanish namunalari

“Pedagogika” va “Yosh davrlari psixologiyasi” fanlari doirasida “Muloqot xaritasi” topshirig'i qo'llanishi mumkin. Unda talaba video yozuvdagi o'qituvchi-o'quvchi dialogini bosqichma-bosqich tasvirlab, har bir replikadagi muloqot strategiyasini belgilaydi va muqobil variantni taklif etadi. Pedagogik amaliyot davomida esa “Kundalik-refleksiya” topshirig'i qo'llanadi: talaba har bir amaliyot kunidan so'ng o'tkazilgan mashg'ulotdagi qiyin vaziyatni, o'zi tanlagan muloqot strategiyasini va uning samaradorligini yozma tahlil qiladi.

Metodika fanlarida “Rolli almashinuv” mashqi samarali hisoblanadi: talaba navbatma-navbat o'qituvchi va o'quvchi rolini bajarib, so'ngra ikkala pozitsiyadan



olingan taassurotni qiyoslaydi. Bu mashq empatiya va o'zini boshqa tomon o'rniga qo'ya olish ko'nikmasini rivojlantiradi [8]. "Ziddiyatli vaziyat" topshirig'i esa nizoli pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va ularni konstruktiv muloqot orqali hal etish yo'llarini izlashga o'rgatadi.

Malakaviy amaliyot yakunida "Portfolio-refleksiya" topshirig'i qo'llaniladi: talaba butun amaliyot davomida to'plagan materiallar (dars ishlanmalari, video parchalar, o'qituvchi izohlari) asosida o'zining muloqot strategiyasidagi o'sishini tahlil qilib, kelgusi rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydi. Bu topshiriq refleksiyani bir martalik emas, balki uzluksiz kasbiy jarayon sifatida shakllantiradi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar refleksiv topshiriqni bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning yordamchi emas, balki muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Refleksiv topshiriqning samarasi uning o'zida emas, balki qanday maqsadda, qanday tuzilmada va qanday metodik izchillikda qo'llanishida namoyon bo'ladi. Bu xulosa D. Shon va F. Korthagenning refleksiya kasbiy mahorat rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi ekanligi haqidagi qarashlariga mos keladi [11; 12].

Xorijiy tadqiqotlarda refleksiv amaliyotning samaradorligi ko'p jihatdan xavfsiz o'quv muhitiga va yo'naltiruvchi savollarning sifatiga bog'liq ekani qayd etilgan [13]. Bu holat bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun ham dolzarb: bir guruhda samarali bo'lgan topshiriq boshqa guruhda xuddi shunday natija bermasligi mumkin. Shuning uchun ta'lim beruvchi tayyor topshiriqlarni mexanik

ravishda ko'chirmasdan, ularni talabalar guruhining tayyorgarlik darajasi va mahalliy pedagogik muhitiga moslashtirishi lozim.

Shu bilan birga, refleksiv topshiriqlardan foydalanishda ayrim xavflarni ham hisobga olish zarur. Birinchidan, refleksiyaning haddan ortiq rasmiylashtirilishi (faqat shablon bo'yicha yozma hisobot) uni chinakam fikrlash jarayonidan mahrum qilishi mumkin. Ikkinchidan, guruhviy muhokamada tanqidning ortiqcha keskin bo'lishi ayrim talabalarda o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishiga olib kelishi mumkin, shu sababli tahlil konstruktiv va qo'llab-quvvatlovchi ohangda olib borilishi tavsiya etiladi. Uchinchidan, raqamli vositalarning jozibadorligi refleksiya mazmunini soyada qoldirmasligi, ular vositaning o'zi emas, balki tahlilni chuqurlashtirish vositasi bo'lib qolishi kerak.

Refleksiv topshiriqlarni muvaffaqiyatli qo'llashning hal qiluvchi sharti ta'lim beruvchining o'zi ham refleksiv pozitsiyaga ega bo'lishidir. U nafaqat topshiriqning tashkilotchisi, balki muhokamaning yo'naltiruvchisi va xolis kuzatuvchisi bo'lishi talab etiladi. Bu esa oliy pedagogik ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar uchun refleksiv o'qitish metodikasiga oid malaka oshirish kurslarini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, refleksiv topshiriq talabaga o'z (yoki modellashtirilgan) pedagogik muloqot tajribasini tahlil qilish, muqobil strategiya izlash va xulosa chiqarishni talab qiluvchi, aniq tuzilmaga ega o'quv topshirig'idir. Uning o'ziga

xosligi talaba uchun ochiq bo'lgan bajarish maqsadi bilan ta'lim beruvchi ko'zlagan chuqurroq kasbiy maqsadning uyg'unligida namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, refleksiv topshiriqlarning psixologik asosini bo'lajak o'qituvchining nazariy bilim bilan amaliy tajriba o'rtasidagi tafovutni anglash ehtiyoji, pedagogik asosini esa amaliyotga asoslangan yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va hamkorlik pedagogikasi tamoyillari tashkil etadi.

Uchinchidan, refleksiv topshiriq refleksiya predmeti, yo'naltiruvchi savollar, refleksiv harakatlar, muhokama shakli va xulosa-harakat rejasidan iborat yaxlit tuzilmaga ega bo'lib, ushbu qismlar o'rtasidagi mutanosiblik topshiriq samaradorligini belgilaydi.

To'rtinchidan, topshiriqni tanlashda maqsadga muvofiqlik, kasbiy tayyorgarlik darajasiga moslik, xavfsiz muhit, vaqt jihatidan tejamkorlik va baholanuvchanlik mezonlariga, o'tkazishda esa tayyorgarlik, kirish, bajarish, guruhviy muhokama va yakuniy refleksiya bosqichlariga izchil amal qilish zarur.

Beshinchidan, maqsad, mazmun, texnologik va baholash bloklaridan iborat metodik model refleksiv topshiriqlarni bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoniga tasodifiy emas, balki tizimli tatbiq etish imkonini beradi.

Kelgusi tadqiqotlarda taklif etilgan modelning samaradorligini pedagogik eksperiment asosida aniqlash, shuningdek, turli fanlar bo'yicha refleksiv topshiriqlar to'plamini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid farmoni // www.lex.uz.
3. Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O. Pedagogika. Toshkent: Fan, 2006.
4. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent: Fan, 2006.
5. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 2004.
6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent, 2008.
7. Hasanboyeva O. va boshq. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi. Toshkent: Ilm Ziya, 2006.
8. Karimova V.M. Psixologiya. Toshkent: O'qituvchi, 2008.
9. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Toshkent, 2007.
10. Dewey J. How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process. Boston: D.C. Heath, 1933.
11. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. New York: Basic Books, 1983.

12. Korthagen F.A.J. et al. Linking Practice and Theory: The Pedagogy of Realistic Teacher Education. Mahwah: Lawrence Erlbaum, 2001.
13. Boud D., Keogh R., Walker D. Reflection: Turning Experience into Learning. London: Kogan Page, 1985.
14. Zeichner K.M., Liston D.P. Reflective Teaching: An Introduction. Mahwah: Lawrence Erlbaum, 1996.
15. Vygotsky L.S. Myshleniye i rech'. Moskva: Pedagogika, 1934 (qayta nashr — 1999).
16. Korthagen F.A.J., Vasalos A. Levels in Reflection: Core Reflection as a Means to Enhance Professional Growth // Teachers and Teaching. 2005. Vol. 11, № 1. P. 47–71.
17. Loughran J.J. Effective Reflective Practice: In Search of Meaning in Learning about Teaching // Journal of Teacher Education. 2002. Vol. 53, № 1. P. 33–43.